



ZULLISONAYN SHOIR RUBOIYOTI (Ahmad Tabibiy ruboiylari badiiyati xususida)

Raximova Saboxat Raxmonqulovna,
O'zbekiston Milliy Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: saboxatraximova1975@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751352>

Annotatsiya. Mazkur maqola Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Ahmad Tabibiy ruboiyotining poetik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Maqola maqsadi shoirning forsiy va turkiy tillardagi ruboiylarida irfoniy mazmun va ijtimoiy-falsafiy pafos sintezini, shuningdek, uning zullisonaynlik mahoratini ochib berishdan iborat. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Tabibiy Navoiy va Xayyom an'analarini davom ettirgan holda, ruboiy janrida o'ziga xos leksik-semantik tizim va metrik o'zgarishlarni shakllantirgan. Xulosa o'rnida shoirning aruz vazni, qofiya va badiiy san'atlar qo'llashdagi mahorati uning lirik merosi yuksak badiiy qimmatini belgilashi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Tabibiy, ruboiy, zullisonaynlik, tasavvufiy istiloh, poetika, badiiy san'atlar.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу поэтического мастерства Ахмада Табиби, видного представителя Хорезмской литературной среды. Целью статьи является раскрытие синтеза ирфонического (суфийского) содержания и социально-философского пафоса в его тюркоязычных и персидских рубаи. Результаты исследования подтверждают, что Табиби, следуя традициям Наваи и Хайяма, сформировал в жанре рубаи уникальный лексико-семантический стиль. В заключении обосновано, что техническое мастерство поэта в использовании системы аруз, рифмовки и художественных средств определяет высокую эстетическую ценность его лирического наследия.

Ключевые слова: Ахмад Табиби, рубаи, двуязычие (зуллисонайн), поэтика, суфийская терминология, аруз, художественные средства.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the poetic skills of Ahmad Tabibi, a prominent representative of the Khorezm literary environment. The purpose of the study is to reveal the synthesis of mystical (irfani) content and socio-philosophical pathos in his Turkic and Persian rubais, as well as his mastery of bilingualism (zullisonayn). The results show that Tabibi, continuing the schools of Navai and Khayyam, developed a unique lexico-semantic style and poetic structure in the rubai genre. In conclusion, it is substantiated that the poet's technical proficiency in aruz prosody, rhyme systems, and the use of artistic tropes defines the high artistic value of his lyrical heritage.

Keywords: Ahmad Tabibi, rubai, literary bilingualism (zullisonayn), poetics, sufi terminology, aruz meter, literary devices.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Xiva xonligi ma'naviy hayoti Muhammad Rahimxon II – Feruz homiyligida shakllangan qudratli adabiy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Bu davrda saroy adabiyoti nafaqat an'anaviy sharqona uslubni davom ettirdi, balki tarjimonlik, tazkiranavislik va xattotlik maktablarini o'zida birlashtirgan o'ziga xos akademiya vazifasini o'tadi. Mazkur adabiy muhitning yorqin namoyandalaridan biri, shubhasiz, tabib, shoir va tazkiranavis Ahmad Tabibiydir. Shoirning badiiy tafakkur tadrijida mumtoz sharq she'riyati janrlariga murojaat qilish va ularni xorazmchasiga sayqallash ustuvor ahamiyat kasb etadi.



Tabiiy lirik merosida g'azal, murabba', muxammas kabi janrlar qatorida ruboiy janri ham o'ta muhim falsafiy va lirik yuk tashuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning zullisonaynlik an'anasining yorqin namunalari sifatida turkiy va fors-tojik tillarida birdek qalam tebratgani, ushbu ikki tilning leksik, morfologik va sintaktik imkoniyatlaridan poetik maqsadlar yo'lida mohirona foydalanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, shoir ruboiylarining hajm jihatidan ancha salmoqli ekani uning bu janrda shunchaki qalam tebratgan ijodkor emas, mohir ruboiynavis sifatida shuhrat qozonganini ko'rsatadi. Turkiy devonlariga 400 ga yaqin, forsiy devonlarida 100 dan ortiq ruboiy kiritilgan Ahmad Tabibiyni albatta bu janrning mohir ijodkori, deyish to'g'ri bo'ladi. Ushbu maqolada asosan, shoir ruboiylaridagi badiiyat masalalariga to'xtalamiz.

Ruboiy shoir uchun tor hajmdagi matn ichiga ulkan ijtimoiy dardni, ilohiy ishq pafosini va taqdirdan shikoyat falsafasini joylash imkonini bergan.

Maqolada ruboiyga shunchaki lirik ifoda emas, balki shoir ruhiyati va davr ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ramziy tizimi sifatida yondashildi. Tahlil jarayonida tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik hamda lingvopoetik metodlardan uyg'un tarzda foydalanildi. Tabibiyning turkiy va fors-tojik tillaridagi ruboiylari faqatgina lingvistik farqlar nuqtai nazaridan emas, balki tasavvufiy ramzlar aruz tizimidagi o'lchov o'zgarishlar va mumtoz poetik san'atlar (ilmi badi' va ilmi bayon) mezonlari asosida baytma-bayt o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad Tabibiyni ruboiylarining mavzu ko'lami benihoya keng bo'lib, unda ilohiy ishq sog'inchi, inson umrining o'tkinchiligi (fano falsafasi), ijtimoiy adolatsizlikdan va charx kajraftorligidan fig'on kabi motivlar yetakchilik qiladi. Shoirning olamni qabul qilishida qandaydir sokin tragizm, botiniy bir iztirob seziladi. Uning lirik qahramoni dunyoni ulkan bir bazmgoh va ayni paytda zindon sifatida idrok etadi. Tabiiy falsafasida falak (charx, sipehr) ko'pincha inson irodasiga qarshi ish ko'ruvchi, zolim va makkor kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi lirik merosi Navoiy maktabining sof o'zbekcha ifodalari, Xorazm uslubiga xos joziba hamda tasavvufiy tarovatni o'zida mujassam etgan. Shuningdek, o'zbekcha ruboiylarida ohangning ravonligi, xalqchil ruh va tasvir vositalarining kutilmagan iste'fodasi ko'zga tashlanadi. Shoir o'zbek tilining boy leksik-semantik imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan holda, birgina ruboiy doirasida ham falsafiy, ham lirik kayfiyatni uyg'unlashtira oladi.

Tabiiy devonlaridagi ruboiylar joylashishida avval hamd mazmunidagilari keladi:

**Hamd o'lsun ongaki, bor Qodiri yakto,
Qildi ikki harfdin jahonni paydo,
Ne ushbu jahonki, o'n sakkiz ming olam,
Bil do'zax-u jannat, ins-u jin, arz-u samo.**



Natija. Ruboiy anʼanaviy hamd (Allohni ulugʻlash) mazmunida boʻlib, unda Yagona yaratuvchi (Qodiri yakto) butun koinotni bor-yoʻgʻi “ikki harf” (Kof va Nun, yaʼni “Kun” – “Boʻl”) amri bilan yaratgani haqidagi tasavvufiy haqiqat butun boʻy-basti bilan namoyon boʻlmoqda. Bahri – hazaj, “yakto”, “paydo”, “samo” soʻzlari (a-a-b-a koʻrinishida) qofiyadosh boʻlib kelgan. Ochiq boʻgʻin bilan tugaydigan qofiyalar urgʻuning taʼkidini yanada oshirgan.

Ruboiydagi Qurʼon bilan bogʻliq tushunchalarga ishora qilinishi – “ikki harf” (Kun fayakun) hamda “oʻn sakkiz ming olam” iboralari talmeh sanʼatining ajoyib namunasini yuzaga keltirgan. Shu bilan birga, soʻnggi misrada ketma-ket qoʻllanilgan mukammal tazodlar zanjiri – doʻzax va jannat, ins (insonlar) va jin, arz (yer) va samo (osmon) matnning badiiy jozibasini yuqori nuqtaga olib chiqqan.

**Hamdinggʻa tilimni doim etgil goʻyo,
Shukringgʻa dilimni moyil et subhi maso.
Sabrimni fuzun ayla berur chogʻi balo,
Taqdiringa hosil et, zamirimda rizo.**

Bu ruboiy oʻzining janr xususiyatiga koʻra, mumtoz adabiyotdagi **munojot** (Allohga yolvorish) anʼanalarini davom ettirgan asar hisoblanadi. Ruboiyning markaziy gʻoyasi “Rizo” maqomidir. Tasavvufda bu — bandaning oʻz irodasini Allohning irodasiga toʻla topshirishi, kelgan har bir neʼmatga shukr, har bir sinovga sabr bilan javob berishidir. Birinchi va ikkinchi baytda muallif yaratgandan hamd aytuvchi til va shukr qiluvchi dil soʻramoqda. Bunda “subhi maso” (erta-yu kech) iborasi orqali bu jarayon uzluksiz, vaqt va makon chegaralaridan tashqarida boʻlishi taʼkidlangan.

Uchinchi va toʻrtinchi baytda esa inson hayotining eng ogʻir damlari — “balo” (sinov) va “taqdir” masalasi koʻtarilgan. Shoir sabrning “fuzun” (koʻp, ziyoda) boʻlishini soʻrash orqali, inson oʻz kuchi bilan emas, balki Yaratganning madadi bilangina sinovlardan oʻta olishiga ishora qilmoqda.

Ruboiyning taʼsirchanligini taʼminlashda bir qancha badiiy sanʼatlar qoʻllangan.

“Subh” (tong) va “maso” (oqshom) soʻzlari orqali vaqt yaxlitligi hamda “balo” va “rizo” (rozilik) orqali holat ziddiyati **Tazodni** yuzaga keltirgan. Shungdek, bir-birini taqozo etadigan til va hamd, dil va shukr, sabr va balo, taqdir va rizo tushunchalari bir-biri bilan mantiqiy bogʻlangan juftliklar sifatida maʼnoni kuchaytirgan. **Tanosub** (mutanosib) sanʼati asosidagi til, dil, zamir (ichki dunyo) kabi tushunchalar esa insonning botiniy olami manzarasini chizadi. **Hazaj** bahrida yozilgan ushbu ruboiy qofiyalanishiga koʻra **Taronai ruboiy** (a-a-a-a, toʻrtala misra ham qofiyalangan) boʻlib, bu mumtoz ruboiynavislikda asarning ohangdorligini oshiradigan turdir.

Ushbu ruboiy shunchaki duo emas, balki mukammal insonning maʼnaviy portretidir. Unda **til-dil-amal** birligi sanʼatkorona tasvirlangan. Toʻrtinchi misradagi “*zamirimda*



rizo” tushunchasi she’rning asosiy g‘oyasini ifodalab, insonning eng oliy saodati — o‘z taqdiridan rozi bo‘lishi ekanligini ta’kidlaydi.

Navbatdagi ruboiyda shoirning fano va umr bebaqoligi haqidagi qarashlari ifodalangan.

**Gar o‘zni jahonda komron bo‘ldi tut,
Ko‘ngling shab-u ro‘z shodmon bo‘ldi tut,
Yetgach ajal aylab hama ashyog‘a vado’,
Jisming qaro tufroqda nihon bo‘ldi tut.**

Sof poetik nuqtai nazardan ushbu ruboiy ham a-a-b-a qofiyalanish tizimida bo‘lib, an’anaviy Xosai ruboiy tuzilishiga ega. Ruboiydagi “komron”, “shodmon”, “nihon” so‘zlari qofiya vazifasini o‘tagan bo‘lsa, undan keyin keluvchi “bo‘ldi tut” birikmasi radif bo‘lib kelgan. “Bo‘ldi tut” (faraz qilgin, bo‘ldi deb hisoblagin) radifi orqali shoir o‘quvchini mantiqiy mushohadaga, o‘zini dunyoning eng baxtli, eng badavlat odami (komron) sifatida tasavvur qilishga undaydi. Radifning takrori har bir misrada ritmik urg‘uni kuchaytirib boradi va uchinchi – xulosalovchi (qofiyalanmagan) misrada pafos eng yuqori nuqtasiga chiqadi: ajal kelgach, barcha narsaga (ashyog‘a) alvido deysan. To‘rtinchi misra qofiya va radifning yakunlovchi nuqtasi sifatida ifodalanib, “jisming qaro tufroqda nihon” bo‘lishini – barcha dunyoviy komronlikning oxiri tuproq ekanligini keskin tarzda xulosa qiladi. Bu yerda mumtoz “tajohuli orifona” (bilib turib bilmaslikka olish) va “tazod” (shodmonlik va o‘lim ziddiyati) san’atlari yuksak maqomda namoyon bo‘lgan.

Shoir fors-tojik tilida yozilgan ruboiylaridan birida olam va odam, hayot va o‘lim munosabatini bitta mukammal metaforik manzaraga joylaydi:

**Jahon jomu, falak soqiy, ajal may
Xaloyiq bodano‘shi suhbatı vay.**

(Bu dunyo bir qadahdir, falak (taqdir) esa o‘sha qadahni to‘ldiruvchi soqiydir. Bu qadahning ichidagi “sharob” esa — o‘limdir.

Barcha insonlar (xaloyiq) mana shu dunyo davrasining mayxo‘rlaridir, ya’ni barchamiz bu majlisda navbat bilan ajal sharobini ichishga mahkummiz.)

Bu shunchaki shikoyat emas, bu butun boshli taqdir (qadar)ga rozilik tamoyilidir. Koinot (jahon) – bir qadah, bu qadahni tutib turuvchi soqiy – falak, uning ichidagi jozibador ko‘ringan, ammo mangu uyquga ketkizuvchi sharob esa – o‘lim (ajal). Butun insoniyat (xaloyiq) mana shu bazmning xaridorlari, o‘lim sharobini sipqorishga mahkum etilgan bodano‘shlardir. Bu yerda Umar Xayyom ruboiylariga xos bo‘lgan falsafiy teranlik, miqyos va o‘tkir pafos ko‘zga tashlanadi. Tabibiy olamning o‘tkinchiligini quruq pand-nasihat bilan emas, balki qalbni larzaga soluvchi, shakliy jihatdan yorqin, estetik jihatdan mukammal poeziya tili bilan chizib beradi.



Ahmad Tabibiy lirikasi matn poetikasi nuqtai nazaridan yondashganda, shoirning har bir ruboiysi falsafiy o'y-fikrlar majmui ekanligini ko'rsatadi. Maqolada tahlilga tortilgan ruboiylarning tillar kesimida ikkiga bo'lib o'rganish shoirning badiiy-estetik qarashlaridagi mushtaraklikni ochib beradi. Tabibiyning forsiy ruboiylarida ko'proq olamning bebaqoligidan tug'ilgan hasrat va ayni paytda undan xalos bo'lish umidi, shuningdek, tasavvufiy tariqat ildizlari ko'zga tashlanadi.

Yo Rab, ba dilam gunohi behad paydo

Neku nabo'vad zarra vali bad paydo.

Yak tavba ba sad sol namekard ayon,

Har lahza zi jurm ast vali sad paydo.

(Yo Rabbii, ko'nglimda cheksiz gunohlar paydo bo'ldi,

Unda yaxshiliklar zarracha ham emas, ammo yomonliklar yaqqol ko'rindi.

Yuz yilda bitta ham tavba ayon bo'lmadi,

Lekin har lahzada gunohimdan yuztasi paydo bo'lmoqda.)

Ushbu ruboiyda munojot (Yaratganga iltijo) motivi markaziy o'rinni egallaydi. Lirik qahramon o'zining insoniy zaifligini, gunohining cheksizligini tan olgan holda Tangri dargohiga yuzlanmoqda. Shoir o'z qalbida "gunohi behad" (cheksiz gunoh) borligini e'tirof etar ekan, asrlar davomida shakllangan malomat qilish an'anasiga ergashadi. Ya'ni lirik qahramon o'zining butun borlig'ini inkor qilish orqali ilohiy komillik oldidagi o'qizligini namoyish etadi.

Ruboiy aruzning hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf shajarasida bitilgan bo'lib, qofiya tizimi an'anaviy *a-a-b-a* tarzidadir. Ya'ni, "behad paydo", "bad paydo" va "sad paydo" birikmalari ajoyib qofiya va radif hosil qilgan. "Paydo" so'zi radif sifatida takrorlanishi lirik qahramonning dardlari va gunohlari doimo yuzaga chiqib qolayotganiga poetik urg'u beradi.

Matn badiiyati dalillaydiki, shoir tazod va mubolag'a san'atlaridan o'ta ustalik bilan foydalangan. Ikkinchi misra "neku" (yaxshi) va "bad" (yomon) so'zlari qarama-qarshiligiga qurilgan. Shu bilan birga, uchinchi va to'rtinchi misralardagi "yak" (bir) va "sad" (yuz) so'zlari ham zidlikni, ham miqdorning bo'rttirilishini ifodalab, insonning tavba qilishga kelganda zaifligi ("yak tavba ba sad sol namekard ayon"), gunoh qilishga kelganda esa uddaburonligini ("Har lahza zi jurm ast vali sad paydo") ustalik bilan ochib bergan.

Yoki:

Soqiy! Qadahe bideh ki olam foniyst

Tasxiri tu gar qalamravi xoqoniyst

Az javri falak omon naboshad hargiz

Gar soili benavo va yo sultoniyst



*(Soqiy! Qadah tutgilki, bu olam foniystir (o'tkinchidir),
Qo'lingda hatto podshohlik bo'lsa ham.
Falakning jabridan hargiz omonlik yo'qdir,
Xoh u bechora, xoh sulton bo'lsa ham.)*

Ushbu satrlarda Xayyomona badiiy idrokning tadrijiy davomini ko'rish mumkin. Shoir o'tkinchi dunyoning (olam foniyst) dardi va zulmidan qochish uchun soqiydan may (irfoniy ma'noda ilohiy muhabbat) so'ramoqda. Shuningdek, dunyo g'amidan omon qolishning imkoni yo'qligi, chunki u gado va sultonni birdek domiga tortishi haqidagi haqiqat bayon etilgan.

Ruboyidagi "foniyst", "xoqoniyst", "sultoniyst" so'zlari an'anaviy qofiyalanish bilan birga, ijtimoiy tabaqalanishning bekorchiligini ta'kidlovchi istilohlar sifatida birlashadi. Birinchi satrdagi **Nido** san'ati (Soqiy!) his-hayajonni kuchaytiruvchi omil sifatida ishtirok etsa, to'rtinchi misradagi "soil" (tilanchi) va "sulton" (shoh) zidligi (tazod) dunyoviy mansablarning foniyligini tasvirlovchi vosita bo'lib kelmoqda.

Navbatdagi ruboiyda shoir mahoratining yana bir qirrasini ko'zga chalinadi:

G'am kusht maro, kujost g'amxori man?

Dil nist ba man kujost dildori man?

Dar dahr kujost yak tabibi hoziq?

To mekunad u iloj-u iymori man.

(G'am meni o'ldirdi, g'amxo'rim qayda?

Menda qolmadi dil, dildorim qayda?

Toki dardimga iloj-u chora qilarga

Bu dunyoda bir tabibi hoziq qayda?

Ushbu ruboiyda lirik qahramonning ruhiy iztiroblari va najot izlashi yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

Ruboiyda lirik qahramonning yolg'izlik va ruhiy qiynoqlar girdobidagi faryodi aks etgan. Shoir "G'amxo'rim qayda?" deya so'rar ekan, bu dunyoda o'z dardlari bilan yolg'iz qolganini ta'kidlaydi. Bu tasavvufdagi "g'ariblik" (bu dunyoda o'zini begona his qilish) tushunchasiga yaqindir. Shuningdek, lirik qahramonning "dilim menda emas" deyishi uning butun borlig'i ishq bilan band ekanidan yoki g'amlar ichida o'zligini yo'qotganidan dalolat beradi. G'am o'z iskanjasiga olgan qahramon o'ziga g'amxo'r, dildor va tabib izlaydi. Bu yerdagi "tabib" obrazi shoirning o'z taxallusi (Tabibiy) bilan ma'lum bir badiiy maqsadga yo'naltirilganligi ehtimoldan xoli emas. Bunda shoir tabib bo'la turib, o'zining dardiga davo topa olmagan xasta oshiq sifatida gavdalanadi. Bu yerda "tabib" ramziy ma'noda qo'llangan. U shunchaki jismoniy xastalikni davolovchi shifokor emas, balki qalb jarohatlariga malham qo'yuvchi ma'naviy ustoz yoki Allohning



marhamatidir. Bu ham *a-a-b-a* qolipida, Xosayi ruboiy bo‘lib, “g‘amxori man”, “dildori man”, “iymori man” birikmalaridagi “man” olmoshi radif vazifasini o‘tagan.

Butun ruboiy Istifhom san‘ati (so‘rash, savol berish) ga qurilgan bo‘lib, “kujost?” (qayerda?) so‘zining takrorlanishi (takrir san‘ati) musiqiylikni ham oshirgan. Badiiy mantiq shuni taqozo etadiki, oshiq o‘ziga tashqaridan xaloskor izlaydi.

Olib borilgan matniy, qiyosiy va badiiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ahmad Tabibiy shunchaki ikki tilda yoza oladigan shoirgina emas, balki har ikkala tilning sintaktik, leksik va ohangdorlik imkoniyatlarini ruboiy janrining tor va qat‘iy qoliplariga mohirona joylashtira olgan “so‘z zargari” bo‘lgan. Tabibiyning turkiy va fors-tojik ruboiylarini qiyoslaganda yuzaga kelgan natijalarga tayanib, shunday xulosa berish mumkin: ikkala tildagi ruboiylarda ham lirik qahramon yagona – u atrof-muhitdagi riyo, zolim falak, bevafoqlikdan charchagan, ilohiy yoxud majoziy ishqdan panoz izlovchi isyonkor ruh sifatida gavdalanadi. Shu bilan birga, tasavvufiy ramzlar (may, soqiy, jom) ikkala tilda ham birdek chuqur falsafiy ma‘no tashiydi. Tabibiy forsiy tildagi ruboiylarida ko‘proq qadimiy xayyomona pafosni, falsafiy mushohadalarni va Hofizga xos rindsifat jozibani yetakchi o‘ringa olib chiqsa, turkiy ruboiylarida Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodining uyg‘uligi yaqqol seziladi. Uning o‘zbekcha she‘rlarida tamsil, tashbeh, tazod, tanosub va boshqa san‘atlar nihoyatda hayotiy, moddiy va aniq detallar asosiga qurilgan bo‘lib, o‘quvchi ko‘z oldida yorqin, haqqoniy manzaralar jonlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tabibiy o‘z ruboiylarida fano va baqo, jamiyat va inson muammosini bayon etar ekan, XIX asr oxirgi choragi va XX asr boshlaridagi o‘zbek mumtoz she‘riyati o‘zining tanazzuliga emas, balki o‘ziga xos yangi mukammal bosqichga chiqqanini isbotladi. Zero, qisqa shakllar (ruboiy, qit‘a) orqali ulkan g‘oyalar va badiiy maqsadlarni ifodalash uchun oddiy shoir emas, “so‘z zargari” bo‘lish talab etiladi. Biz esa shoirga shunday ta‘rif berishga haqlimiz.

So‘z zargari – Tabibiy o‘z ruboiylari bilan mumtoz se‘riyatning o‘lmas an‘analariga munosib voris va benazir badiiy maktab ijodkori bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asosiy manbalar: Ahmad Tabibiyning turkiy va forsiy tildagi qo‘lyozma devonlari “Munis ulushshoq” va “Mirot-ul-ishq”
2. Ibrohim Xudoyor “G‘aribahoyi oshno” Milliy tadqiqotlar instituti. 2005-yil
3. Ahmad Tabibiy. Tanlangan asarlar. “BOOKMANY PRINT” nashriyoti, Toshkent, 2025-yil
4. Fathulla G‘anixo‘jayev. “Ahmad Tabibiy” monografiyasi, Toshkent “Fan” nashriyoti, 1978-yil.
5. Umar Xayyom. Ruboiylar. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. Toshkent, 2012-yil,
6. Yunus Yusupov. “Xorazm shoirlari” Toshkent, 1967-yil.
7. Iqboloy Adizova. “Xiva adabiy muhiti” maqolasi. 1990-yil
8. Shermuhammad Omonov. “Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi ruboiylari” maqolasi (2020-yil).